



УДК: 377.011

**DARS MASHG'ULOT VAQTIDA O'QUVCHILARNING FANLARARO
ALMASHINUV DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH**

Алмардонова Мохичехра Фахриддиновна

Термиз давлат университетининг эркин тадқиқотчи Манзил:100080, Термиз ш.

Б.Авлод кўчаси, 43 уй.

Аннотация: Tarbiyachining ijodkorligi negizida bolalarga xalq hunarmandchilik an'analari va urf-odatlar puxta, chuqur va asosli bilim berish, avlodlar kasbkori, nasl – nasabini keng darajada bilish va uning mohiyatini tarbiyalovchiga yetkaza olish kobiliyatiga ega bo'lish kabilalar mujassamdir. Bolalarga loy yoki plastilindan turli narsalar yasashga bo'lgan ehtiyojlari ulardagi qiziqish mahsulidir. Hunar o'rganishga bo'lgan ehtiyoj, bolalarga hunarmandchilik asbob uskunalarini bilan qiziqib o'ynash va biror – bir samarali mehnat turi bilan jiddiy shug'ullanish imkonini beradi. Lekin bolalar o'zlaridagi bu harakatlar mehnatga bo'lgan ehtiyoj ekanligini sezmaydilar va imkoniyat madaniyatini ham chuqur anglab yetmaydilar.

Калит со'злар: Dars, o'quvchi, davr, Interfaol metod, urf-odat, tarbiyachi, fanlararo almashinuv, o`qitish usul.

Аннотация: На основе творчества воспитателя можно дать детям основательные, глубокие и фундаментальные знания о традициях и обычаях народных промыслов, уметь быть профессионалом поколений, знать в большом объеме генеалогию и уметь донести ее суть до воспитателя. Детская потребность слепить разные вещи из глины или пластилина – это продукт их интереса. Необходимость обучения ремеслу позволяет детям играть с ремесленными инструментами и оборудованием и серьезно заниматься каким-либо продуктивным трудом. Но дети не осознают, что эти действия являются необходимостью работы, и они не до конца понимают культуру возможностей.

Ключевые слова: урок, ученик, период, интерактивный метод, традиция, педагог, междисциплинарный обмен, метод обучения.

Annotation: based on the creativity of the educator, it is possible to provide children with a thorough, deep and fundamental knowledge of folk craft traditions and customs, to be able to be a professional of generations, to know the genealogy to a large extent and to be able to convey its essence to the educator. Children's need to make different things from clay or plasticine is a product of their interest. The need to learn a craft allows children to play with craft tools and equipment and seriously engage in some kind of productive work. But children do not realize that these actions are the need for work, and they do not fully understand the culture of opportunity.

Key words: lesson, student, period, interactive method, tradition, educator, interdisciplinary exchange, teaching method.



KIRISH

E'tiqod va qiziqishlar har bir shaxsdagi dunyoqarashni shakllantiradi. Dunyoqarash – tartibga solingan, yaxlit ongli tizimga aylantirilgan bilim, tasavvurlar va g'oyalar mazmuni bo'lib, u shaxsni ma'lum bir qolipda o'z shaxsiy qiyofasiga ega tarzda jamiyatda munosib o'rin egallashga chorlaydi. Mustaqillik davrida shakllanayotgan yangicha dunyoqarash yoshlarda vatanga sadoqatni, milliy qadriyatlar, an'analarni e'zozlashni, o'z yaqinlariga mehribon va tanlagan yo'liga, kasbiga, maqsadi va e'tiqodiga sodiqlikni nazarda tutadi. Yangicha fikrlash, yangicha tafakkur aynan mustaqillik mafkurasi ruxida tarbiya topib, sayqal topgan milliy ong, dunyoqarash va e'tiqoddir. «Biz o'z iste'dodli fidoiy bolalarimiz farzandlarimizga bilim va kasb cho'qqillarini zabit etish uchun qanot berishimiz kerak». Yurtboshimiz bolalarimizga ilk yoshidanok kasb hunar o'rgatish mustahkam bilim berishimiz naqadar zarur ekanligini yuqoridagi fikrlari bilan tasdiqlagan edilar. O'zbekiston Respublikasi mustakillikka erishgandan keyin xalkimizning o'z yurti madaniyati yuksaltirishga milliy qadriyatlarimizni tiklashga e'tibori kuchaydi va bunga keng imkoniyatlar yaratildi. Shu boisdan ham jamiyatning kelajagi bo'lgan yosh avlodga dunyoviy bilimlarni chukur singdirish bilan bir katorda mehnat an'analarini vositasida mehnatga qiziqtirish va yuksak ma'naviyatli kishilar qilib tarbiyalash dolzarb vazifa bo'lib qoldi. Darhaqiqat, Sharq mutafakkir allomalari, hunar va hunarmandlarga katta e'tibor bergenlar. Jumladan A. Navoiy o'z zamonasida zargarlar, kulollar kabi turli – tuman hunar sohiblarining hammasiga zo'r hafsala, qunt va e'tibor bilan maslahatlar berib, husniga rag'bat ko'rsatib hamda ularga xomiylig qilganlar. A. Navoiyning fikricha, inson bo'lib dunyoga kelding-mi? Biror kasbni egalla, shunda dunyodan hamomga kirib toza yuvinib chiqmagan kishidek o'tmaysan dedilar. Shuningdek donishmandlarimiz o'git qilganlarki vaqtini ilm hunarga muhabbat ko'ying, o'rgatilgan narsalarni yoddingizda tuting, ilm hunar o'rganishga chin ixlos bilan kirishing. Xattoki ulug' shayxlarimizning o'zlarini ham biror hunar egasi bo'lganlar, masalan shayxil mashoyix Abu Said Xarros etikdo'zlik qilgan. Shayx Muxammad Sappo mashhur pichoqchi, shayx Xo'ja Bahovoddin Nakshbandiy ajoyib naqqosh bo'lganlar. Naqshbandiy aytadi - «Dil bayoru dast bakor» ya'ni diling alloxda ko'ling doim mehnatda bo'lsin.

Kaykovusning "Qobusnoma" asarida ... sen obod, hunar va donishni o'zingdan meros qilgin, toki uning haqini bajo keltirmish bo'lg'aysan. Chunki xos kishilarning farzandiga hunardan yaxshiroq meros yo'qdir. Oliy xaloyiqning farzandlariga xirfa pesha din yaxshiroq meros yo'qdir. Hunar bir kun ishiga yaragusidir, demak albatta hunar o'rganmoq zarurdir – degan da'vatkor fikrlar keltirilgan. Hunarning ne chog'li zarur ekanligi shuningdek, qator rivoyatlar naqllar ertak dostonlarda o'z aksini topgan... Jumladan, «Sirli gillamcha», «Oltin balik», «Balikchi bola», «Sovdagar bilan balikchi», «Rustam» kabilarda hunar egallahda poklik, sabr qanoat, matonat, mehnat madaniyatiga rioya qilish muhim o'rin tutadi. Ota bobolarimiz ham hunar o'rganishni asosiy ekanligini o'rgatib kelganlar. Hunar o'rgan chunki hunarda ko'p sir yopik eshiklarni ochar birma – bir. Ulug' mutafakkir qomusiy olim, faylasuf Abu Rayxon Beruniy jahon fani madaniyati tarixida uchmas iz qoldirdi. Uning ta'lim tarbiya haqidagi fikrlari bugungi kunda ham muhim ahamiyatga ega. Beruniy bolani o'kitish va tarbiyalashni quyidagi tarmoklarga bo'ladi: akliy va ahlokiy tarbiya nafosat va mehnat tarbiyasi oilaviy tarbiya. Uning kichik yoshdagi bolalar ta'lim tarbiyasidaga xos



yo'nalishdagi tadqiqotlarga qo'lagan usullarini umumlashtirib quyidagi masalalarga aniqlik kiritishimiz mumkin.

1. O'qitishda yodlatish emas balki, tushuntirish mantiqiylash fikrlash xulosalar chiqarishga amal qilishni uqtirgan.
2. Olim fanlarni va insoniyat yaratgan bilimlarni o'rganishda ularga ongli va tanqidiy yondashgan.
3. Bolalarning qiziqishi va intilishni hisobga olishni va tarbiyachi o'z shogirtiga hush muomilada bo'lishni ta'kidlagan.

Mutafakkirlardan Abu Rahon Beruniy mehnatni ulug'lab, "Mehnat tufayli ilmda ijodiy yodgorliklar bunyod etilishini ta'kidlaydi. Yoshlarga kasb - hunar mehnat tarbiyasini berish, mehnat an'analari, urf-odatlarini o'rganish, havo bilan suv kabi zarurligini ularning kelajagi shu bilan bog'lik ekanligi to'g'risida ta'lim beradi. Abu rahon beruniy o'zining «Geodeziya» asarida «Insonning tilak va xoxishlar mehnat tufayligina amalga oshirilishi mumkin», - deb uqtiradi.

Hunarmandchilik ustaxonasida ochilgan tugarklarda kasb hunarga bo'lgan moyillik – qiziqish va muhabbatni uyg'otadi. Bu borada o'quvchilarda ijodkorlik omilini amalgalashda tarbiyachilardan qo'yidagilar talab etiladi.

- xalk hunarmandchiligi bo'yicha chuqur bilimga biror bir kasb hunar bo'yicha mahoratga ega bo'lishlari;
- mashg'ulot jarayonidagi ta'lim – tarbiyaning samarali shakl va usullarini tanlay bilishlari;
- har bir mehnat turida bajariladigan mehnat faoliyatini to'g'ri rejorashtirishlari;
- o'zi biladigan kasbni bolalarga o'rgatish mahorati darajasi va intilishi kabilalar.

Tarbiyachining ijodkorligi negizida bolalarga xalq hunarmandchilik an'analari va urf-odatlar puxta, chuqur va asosli bilim berish, avlodlar kasbkori, nasl – nasabini keng darajada bilish va uning mohiyatini tarbiyalovchiga yetkaza olish kobiliyatiga ega bo'lish kabilalar mujassamdir. Bolalarga loy yoki plastilindan turli narsalar yasashga bo'lgan ehtiyojlari ulardagi qiziqish mahsulidir. Hunar o'rganishga bo'lgan ehtiyoj, bolalarga hunarmandchilik asbob uskunalarini bilan qiziqib o'ynash va biror – bir samarali mehnat turi bilan jiddiy shug'ullanish imkonini beradi. Lekin bolalar o'zlaridagi bu harakatlar mehnatga bo'lgan ehtiyoj ekanligini sezmaydilar va imkoniyat madaniyatini ham chuqur anglab yetmaydilar. Ana shunday hollarda bolalarning har bir harakatini rag'barlantirib borish orkali o'zlari yaratgan buyumdan go'zallikni his qila olishga ishtiyooq o'yg'otilsa, ular mehnat qilishga qiziqish yanada kuchayadi.

Hulosa Uning natijatida, mehnat bola uchun ongli faoliyatga, ijod va ilhom manbaiga aylanadi ya'ni, bola o'zi yasagan o'yinchog'i bilan o'ynaydi va zavqlanadi. Maktabgacha tarbiyayoshdagi bolalarda milliy mehnat qadriyatları vositasida mehnatsevarlik tuyg'usini shakllantirish kator pedagogik tamoyillarga asoslanishi talab etadi. Masalan: bolalarning jinsi, yosh va shaxsiy xususiyatlari ko'ra xar bir mahsulotning ta'limiy tarbiyaviy rivojlantiruvchi xususiyatlarini e'tiborga olish hamda mashg'ulot mazmunini ma'lum ketma – ketlik izchillik asosida bola ongiga singdirish va bunda xalq pedagogikasi, Sharq mutafakkirlarining bizga qoldirgan boy merosi, mehnat an'analariidan keng foydalanish:



bolalarning akliy, ahloliy va nafosat madaniyatiga, jismoniy rivojlanishga havas tuyg'usini tarbiyalashga qaratilgandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shomirzayev M. K. Developing Educational Technologies In School Technology Education //Next Scientists Conferences. – 2022. – C. 14-23.
2. Shomirzayev M. K. et al. National handicrafts of Uzbekistan and its social-economic significance //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2020. – T. 8. – №. 8. – C. 129-138.
3. Shomirzayev M. K. Education is personally focused technology //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2020. – T. 8. – №. 8.
4. Shomirzayev M. K. Technology of Educational Process in School Technology Education //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2020. – T. 2. – №. 07. – C. 212-223.
5. Shomirzayev M. K. The Ethical Characteristics of Traditional Embroidery of Fergana Valley People //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2019. – T. 2019.
6. Shomirzaev M. X. Innovative pedagogical technologies in teaching technology. Textbook //T: Tafakkur. – 2021.
7. Shomirzayev MX. "innovatsion pedagogik texnologiyalar. Darslik." T.: "TerDU nashr-matbaa markazi 226 (2020).
8. Shomirzayev M. K., Yuldashev K. K. Use of Some Historical Materials in Technology Education Classes //International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. – 2021. – T. 8. – №. 11. – C. 184-195.
9. Shomirzayev M. K., Yuldashev K. K. Student-Folk Craft for Young People Teaching History as a Factor of National Education //International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. – 2021. – T. 8. – №. 8. – C. 475-486.